- Qaysi javobda bosh so'zi "lavozi, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi" degan ma'noda qo'llangan?
A) Bir boshga bir o'lim.
B) Bundan so'ng ham bosh mirzolingizniemas, mirza Anvarligingizni ehtirom qilamiz.
C) Huzuringizga kelishimning bosh sababi shundadir!
D) Ozgina yurgach, "Bog'izag'on"ning bosh arki oldidan chiqdilar.
- Yomon odamdan yaxshi gap kutma. Ushbu maqoldagi nechta so'z tarkibida jarangli til orqa undoshi qatnashgan?

A) 2ta B) 4ta C) 3ta D) 1ta

- U hammavaqt faqat sabzi, piyoz, un, kerosin sotadi. Ushbu gapdagi imloviy xatolik qanday qoida bilan bog'liq?
A) asos va qo'shimchalar imlosi
B) chiziqcha bilan yozish
C) ajratib yozish
D) qo'shib yozish
- Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?
A) buloqning ko'zi B) shabadaning yugurishi
C) tog' cho'qqisi D) qalin taxta
- Tilimizning ma'lum davrida qo'llanib, o'z o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan birliklar qatorini aniqlang.
A) o'lpon, jadid, rasadxona
B) cherik, ziroat, mingboshi
C) hojib, degrez, yorg'ichoq
D) payg'om, bog'ot, gisu

Matematika


- Chizmadagi shakllarning bo'yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig'indisini hisoblang.



A) 4/5 B) 3/2 C) 7/10 D) 2/3

- $\overline{22m}$ son m ning qanday qiymatlarida 4 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 0, 2 B) 4, 8 C) 0, 4, 8 D) 0, 2, 4
- Kub qirrasining uzunligi 4 cm ga teng bo'lsa, uning to'la sirti yuzini (cm^2) toping.
A) 144 B) 96 C) 64 D) 128
- Benzin baki va kanistrning hajmlari mos ravishda 9:1 nisbatda. Benzina to'la bakni bo'shatish uchun eng kamida nechta (hajmi dastlabki kanistr hajmi bilan bir xil bo'lgan) kanistr kerak bo'ladi?
A) 9 B) 10 C) 7 D) 8
- $3/(x-y)$ va $5/y$ kasrlari uchun umumiy maxrajni aniqlang.
A) $x(x-y)$ B) $y(x-y)$
C) $xy(x-y)$ D) $x-y$
- Ketma-ketlikning keyingi hadini aniqlang.
 $3-3=0$, $3-2=1$, $3-1=2$, $3-0=3$
A) $4-3=1$ B) $3-4=-1$
C) $3-(-1)=-4$ D) $3-(-1)=4$
- Chizmadan foydalanib $B(x)$ nuqtaning koordinatasini toping (belgilangan yonma-yon joylashgan nuqtalar orasidagi masofalar bir xil).

9 birlik o'ngga



A) 1 B) 0 C) 2 D) -1

18. Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

- A) $10\text{ m}^2 = 1000\text{ cm}^2$
 B) $10\text{ m}^2 = 100\text{ dm}^2$
 C) $10\text{ m}^2 = 10000\text{ mm}^2$
 D) $10\text{ m}^2 = 1000\text{ dm}^2$

19. 1875315 soni necha xonali son hisoblanadi?

- A) 6 B) 5 C) 7 D) 3

20. Hisoblang.

- $15 \cdot 13 + 15 \cdot 29 + 42 \cdot 19 + 34 \cdot 58$
 A) 4200 B) 5800 C) 2900 D) 3400

O'zbekiston tarixi

21. Quyidagi sulolardan qaysi biri XVIII asrda Xiva xonligida o'z hukmronligini o'rnatgan edi?

- A) mang'itlar B) qon'g'irotlar
 C) ashtarxoniylar D) shayboniylar

22. Qadimda O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar nima deb atalgan?

- A) "aqinak" B) "sagaris"
 C) qilich D) "bargustvon"

23. Kidariylar Hindistonda qancha vaqt hukmronlik qilgan?

- A) 75 yil B) ikki asr
 C) bir asr D) 120 yildan oshiqroq

24. Buxoroda mamlakatdagi adolat mezonlariga amal qilinishi ustidan kim nazorat o'rnatgan?

- A) Dodxoh B) Shayxulislom
 C) Qozikalon D) Muhtasib

25. Ko'chmanchi sak qabilalari qayerlarda istiqomat qilishgan?

- A) Cho'l va Amudaryo bo'ylarida
 B) Qashqadaryo vodiysida
 C) O'rta Osiyoning tog'lik, dasht va cho'l yerlarida
 D) Sahro va Zarafshonning quyi oqimida

26. Xorazmning qaysi qadimgi shahri yaqinidan qo'lida shohboz lochin tutgan tojkor tasviri so'qilgan tanga topilgan?

- A) Tuproqqal'a B) Kat
 C) Balx D) Anqaqal'a

27. Xurosonda 873-900-yillarda hukmronlik qilgan sulolani aniqlang.

- A) G'aznaviylar B) Tohiriylar
 C) Safforiylar D) Saljuqiylar

28. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha bob va moddalardan iborat?

- A) 28 bob va 128 modda
 B) 20 bob va 125 modda
 C) 26 bob va 128 modda
 D) 23 bob va 125 modda

29. 1925-yil apreldan 1930-yil sentyabrigacha O'zbekiston SSR poytaxti sanalgan shaharni aniqlang.

- A) Toshkent B) Farg'ona
 C) Samarqand D) Buxoro

30. "Hindiston" asari muallifini toping.

- A) Zahiriddin Muhammad Bobur
 B) Abu Rayhon Beruniy
 C) Mirzo Ulug'bek
 D) Abu Ali ibn Sino

Biologiya

31. Obidov gultish singari...

- a) Gulkosachabarglari 5ta erkin; b) Gultojibargi 5ta qo'shilgan; c) mevasi tugunak; d) mevasi rezavor; e) bir urug'li ho'l mevaga ega; f) ko'p urug'li ho'l mevaga ega
 A) b,d,f B) a,c,f; C) a,d,f; D) b,d,e;

32. Bir kunlik iste'mol qilingan ozuqaning organizmda ishlatilishi quyidagicha:

Ozuqa	katabolizm	Anabolizm
Oqsil(100g)	40%	60%
Yog'(100g)	100%	0%
Uglevod(500g)	60%	30%

Bunda oqsil va uglevoddan hosil bo'lgan energiya jami dissimilatsiyadan hosil bo'lgan energiyaning necha % ni tashkil etadi?

- A) 30,6; B) 35,8;
 C) 50,33; D) 60;

33. Agar oshqozon hujayralaridan ajralib chiqqan karbonat angidrid burun orqali chiqib ketsa, u quyidagi qaysi strukturalardan o'tmaydi?

- A) Bronx B) O'pka venasi
 C) O'ng bo'lmacha D) Alveola

34. Mezazoy erasini Bo'r davrida sodir bo'lgan aromorfoz jarayonlarini aniqlang.

- 1) xaltali va yo'ldoshli sutemizuvchilar paydo bo'lgan; 2) arxeoteriks paydo bo'lgan; 3) yopiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan; 4) uchuvchi hashorotlar, o'rgimchaklar paydo bo'lgan; 5) chumoli, asalari, arilar paydo bo'lgan; 6) dastlabki sutemizuvchilar paydo bo'lgan;
 A) 2,4,6 B) 2,3,5 C) 1,4,6 D) 1,3,5

35. Sekretsia bezlari va ular ishlab chiqaradigan gormonlarni juftlab yozing.

- a) qalqonsimon bez, b) qalqonoldi bezi, c) gipofiz, e) epifiz, f) ayrisimon, h) buyrakusti.
 1) paratgormon, 2) somatotrop, gonadotrop, 3) melatonin, 4) tiroksin, 5) androgen, estrogen, 6) timozin.
 A) a-5, b-1, c-4, e-3, f-6, h-2
 B) a-4, b-1, c-2, e-3, f-6, h-5
 C) a-2, b-3, c-4, e-1, f-5, h-6
 D) a-3, b-5, c-6, e-4, f-2, h-1

36. Quyida berilgan suyaklar haqidagi to'g'ri fikrlarni juftlab ko'rsating.

- a) boldir; b) son
 1) oldingi qismida oyoqni chanoqdan bukuvchi muskul joylashgan;
 2) orqa qismida uch boshli muskul joylashgan;
 3) oldingi qismida oyoqni chanoqdan yozuvchi muskul joylashgan;

4)oldingi qismida oyoqni tovondan bukuvchi muskul joylashgan

- A) a-2; b-1; B) a-1; b-3;
C) a-3; b-2; D) a-4; b-1;

37. Quyidagi olimlar va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlang.

a) Darvin; b) Levenguk;

- 1) protoplazmani kashf etgan; 2) nuklein kislotalarni birinchi marta aniqlagan; 3) polimer irsiylanishni o'rgangan; 4) uning fikriga ko'ra tabiatda turlar paydo bo'ladi, yoqoladi, o'zgaradi; 5) turning realligini tan olmagan holda tabiatda faqat individlar mavjud deb hisoblagan; 6) „Porloq“ navini yaratgan; 7) bir hujayrali hayvonlar va bakteriyalarni birinchi marta o'rgandi; 8) „to'qima“ tushunchasini fanga kiritgan;
A) a-6; b-1; B) a-5; b-8;
C) a-4; b-7; D) a-2; b-3;

38. Organizmlar o'rtasidagi simbioz munosabatlardan nechtasining ishorasi to'g'ri juftlangan

Organizmlar o'rtasidagi munosabatlar	Shartli belgi
Epifit o'simliklarning daraxtlar po'stlog'ida o'sishi	(+; 0)
Ayrim qushlar Sirtlonlarning ovqat qoldiqlari bilan oziqlanishi	(+; -)
„zohid“ qisqichbaqasi aktiniyalarning tarqalishini taminlashi	(+; +)
Askarida va odam o'rtasidagi munosabati	(+; -)

- A)2 B)4 C)1 D)3

39. Quyidagi kashfiyotlarni ularni amalga oshirgan olimlar bilan to'g'ri juftlang.

- a)ilk bor genlarni klonlagan;
b)ilk bor replika ko'chirgan;
c)DNK polimeraza fermentini ajratib olgan
1)Korenberg; 2)Joshua va Ester Lederberg; 3)Koen va Boyer;
A)a-1; b-3;c-2 B)a-3; b-1; c-2
C)a-2; b-3; c-1; D)a-3; b-2; c-1

40. Quyidagi qon guruhlari bilan bog'liq qaysi jarayonlar noto'g'ri ifodalangan.

- (donor → retsiyent) 1) I → III; 2) II → I; 3) IV → I; 4) III → II; 5) II → IV; 6) I → II; 7) IV → III; 8) I → IV;
A) 1,6,8 B) 1,5,7 C) 3,4,6 D) 2,3,7

41. Hayvonlarning harorat o'zgarishiga moslanishlarini mos ravishda juftlab ko'rsating.

- a) biokimyoviy; b) fiziologik
1)gambuziya tanasida glikoproteinining bo'lishi;
2)tipratikanning qishda uyquga ketishi; 3)dengiz mushugi terisi ostida qalin yog' qavatining bo'lishi;
4) past haroratda issiqqonli hayvonlarda moddalar almashinuvi jadalligining ortishi
A)a-1,3; b-2,4 B)a-1,4; b-2,3
C)a-2,3; b-1,4 D)a-1,2; b-3,4

42. Klaynfelter sindromi qaysi javobda tog'ri klassifikatsiyalangan?

- A) modifikatsion -mutatsion-xromosoma-trisomiya
B) genotipik-mutatsion-gen- trisomiya
C) genotipik-mutatsion-genom-trisomiya
D) modifikatsion -mutatsion-genom- trisomiya

43. Gorillada ovogeneznining ko'payish davrida sodir bo'lmaydigan jarayonlarni aniqlang.

- 1) jinsiy hujayralarda 24 ta xromosoma bo'ladi; 2) diploid to'plamli hujayralar hosil bo'ladi; 3) hujayralar meyoza usulida bo'linadi; 4) hujayralar mitoz usulida bo'linadi.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3, 4 D) 1, 2

44. Arpa o'simligida yorug'lik energiyasi hisobiga 3240 mol ATF sintezlangani malum bo'lsa, shu vaqtda hujayra mitoxondriyasida hosil bo'lgan ATF bog'langan energiyani **KJ** datoping.

- A)2340 B)3420 C)4320 D)4230

45. Tekshirishlar natijasiga ko'ra bemorga qon plazmasida agglutininning ham α ham β turlar bor bo'lgan qon guruhlarni quyish mumkin bo'ladi. Bemorning o'zi esa qanida faqat agglutininlar bor bo'lgan qon guruhga retsiyent bo'lsa. Bemorning qon guruhini aniqlang?

- A) II B) IV
C) III D) I

46. G'o'za o'simligida hosil shoxini cheklanmagan bo'lishi, hosil shoxini cheklangan bo'lishi ustidan to'liq dominantlik qiladi. Tolasini malla bo'lishi oq bo'lishi ustidan chala dominantlik qiladi va geterozigotalilarda novvotnag tolali o'simliklar paydo bo'ladi. Degeterozigota genotipga ega o'simliklar o'zaro chatishtrilishi natijasida avlodda olingan o'simliklarni fenotipik ajralish nisbatini aniqlang.

- A) 9:3:4 B) 3:6:3:1:2:1
C) 9:3:3:1 D) 1:2:2:4:1:2:1:2:1

47. Qushlar bilan bo'g'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

- 1)qarg'a ayrim so'zlar va hatto iboralarni eslab qolib, takrorlashi mumkin;
2) jo'rchining jufti uzoq yillar davomida saqlanib qoladi;
3) bedananing tuxumdan chiqqan jo'jalarining ko'zi yumuq, quloq teshigi yopiq bo'ladi;
4) chug'urchuqlar dushmanini sezganida ovozinin boricha shovqin solishi- etiologik mezon ;
5) protoavis arxeopteriksdan bir necha million yil keyin yashagan.
A) 1,3,5 B) 1,2,5
C) 1,2,4 D) 2,3,4

48. Kostroma haqidagi to'g'ri fikrlarni toping. a)juft tuyoqlilar turkumiga mansub b) oshqozoni murakkab ikki bo'lmali c) qoramol tasmasimonining oraliq xo'jayini d) cho'chqa tasmasimonining asosiy xo'jayini e) xinokokning oraliq xo'jayini

- A) b,d,e B)a,c,e
C) a,d,e D) b,c,e

49. Aminokislotalarni aniqlang.

- A) tirozin, mum
B) prolin, oksiprolin
C) gistidin, sitoizin
D) oksiprolin, guanin

50. Quyidagi organoidlarga tegishli to'g'ri fikrlarni mos ravishda juftlang.

- a) endoplazmatik to'ri; b) golji majmuasi
1)murakkab membranalar tizimidan iborat; 2)bir qavat membrana bilan chegaralangan vakuolalar

- va kanalchalardan iborat; 3) birinchi marta nerv hujayralaridan ajratib olingan.
4) bir qavat membranali yassilangan bo'shliqlar, yirik vakuolalar, mayda pufakchalardan tuzilgan
A) a-1,2; b-3,4 B) a-3,4; b-1,2
C) a-2,3; b-1,4 D) a-1,3; b-2,4
51. Neotropik biogeografik viloyatiga xos eukariotlarni ajrating.
1) emu; 2) iguana; 3) qora daraxt; 4) xameleon; 5) evkalipit;
6) skuns; 7) bambuk; 8) giyena itlari;
A) 4,8 B) 1,5 C) 3,7 D) 2,6
52. Quyidagilardan Evolutsiya tiplarini mos ravishda juftlang.
a) *Parallel Evolutsiya*; b) *Konvergent evolutsiya*;
c) *Divergent evolutsiya*
1) akula tana tuzilishining ixtiozavrga o'xshashligi;
2) kitsimonlar tana tuzilishining kurakoyoqlilarga o'xshashligi; 3) qirg'ovul kenja turlarining paydo bo'lishi
A) a-3; b-2; c-1 B) a-2; b-3; c-1
C) a-1; b-3; c-2 D) a-2; b-1; c-3;
53. Bitta meva bargdan (a) va bir nechta meva bargdan (b) iborat meva ega o'simliklarni aniqlang.
1) g'oza; 2) qurtana; 3) oq akatsiya; 4) boychechak; 5) jag'-jag'; 6) burchoq; 7) bangidevona; 8) rediska; 9) no'xat;
A) a-2,5,8; b-3,4,9;
B) a-3,6,9; b-1,4,7;
C) a-3,4,6; b-2,3,9
D) a-1,4,7; b-2,5,8;
54. Quyidagilarni mos ravishda juftlang.
a) *gomologik organlar*; b) *analogik organlar*
1) odamning ko'zi- kalmarning ko'zi; 2) no'xat gajagi-chillakining gajagi; 3) g'umayning ildizpoyasi- topinambur tugunagi; 4) lolaning piyozboshi- se barganing kallakchasi
A) a-1,3; b-2,4 B) a-1,2; b-3,4
C) a-3,4; b-1,2; D) a-2,3; b-1,4
55. Ribozaning *dezoksiribozadan* farqi berilgan javobni toping.
a) tamaki mozaikasi tarkibidagi Guaninli nukleotid tarkibida mavjudligi;
b) gidrofil modda ekanligi;
c) ADF tarkibida mavjudligi;
d) transkripsiya mahsuloti tarkibida mavjud ekanligi;
e) translatsiya mahsuloti tarkibida mavjud ekanligi
f) adenovirusning Adeninli nukleotidi tarkibida mavjud
A) a,b,e; B) b,c,d; C) a,c,d D) a,e,f;
56. Genealogik metod orqali aniqlanga dominant (a) va retsessiv (b) kasalliklar berilgan javobni aniqlang.
1) gemofiliya; 2) braxidaktiliya; 3) ko'z shox pardasining ko'rlikka olib keladigan irsiy degeneratsiyasi; 4) qandli diabet; 5) sil kasalligiga moyillik; 6) shizofreniya; 7) kaltabarmoqlik;
A) b-7,2,3,5; a-4,1,6
B) b-6,1,4; a-3,2,7,5
C) a-1,4,6; b-2,3,5,7;
D) a-4,3,1; b-7,6,5,2;
57. Quyidagi ekologik munosabatlarni shartli belgilariga moslarini belgilang.
1) (+ -); 2) (0 -)
a) daraxtlarning tanasi va shoxlarida epifit o'simliklarni o'sishi; b) termitlarni ichagida xivchinlilarni yashashi; c) gulli o'simliklarni asalari tomonida changlanishi; d) mog'or zamburug'larini tashqi muhitga antibiotiklar ishlab chiqarilishi; e) bitta o'rmondagi qizilishton va bug'u munosabati; f) o'txo'r hayvonlar va chigirtkalarni ozuqa uchun kaurashishi; j) baliq terisida baqachanoq lichinkasini parazitlik qilishi
A) 1- f; 2- d B) 1- j; 2- b
C) 1- j; 2- d D) 1- b; 2- f
58. Quruqlikdagi o'simliklarning namlikka nisbatan ekologik guruhlarini ularga tegishli fikrlar bilan mos ravishda juftlang.
a) *kserofit*; b) *mezofit*; c) *gigrofit*
1) savanna, baland tog' hududida o'sadigan o'simliklar; 2) qisqa muddatli nam tanqisligiga chiday oladigan o'simliklar; 3) zaxira holda havo saqlovchi to'qimaga ega o'simliklar
A) a-2; b-1; c-3 B) a-3; b-2; c-1
C) a-1; b-2; c-3 D) a-1; b-3; c-2
59. Odamlarda *qandsiz diabet* va *ikkinchi kurak tishning bo'lmashligi* dominant belgi bo'lib jinsiy **X** xromasomaga birikkan holda irsiylanadi. Qandsiz diabet bilan kasallangan , ikkinchi kurak tishi yo'q ayol (*dominant genlarning ikkalasini ham onasidan olgan*) va sog'lom ikkinchi kurak tishi bo'lmagan erkakning nikohidan tug'ilgan farzandlarning necha %i *qandsiz diabet , ikkinchi kurak tishi bor bo'ladi?* (genlar orasidagi masofa **44 marganida**)
A) 25 B) 11 C) 22 D) 14
60. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javoblarni ko'rsating.
Olma mevaxo'ri kuya singari. . . .
1) g'umbaklik davri mavjud; 2) qurtlari daraxt po'stlog'ida rivojlanadi; 3) tangachalilar turkumiga mansub; 4) chala o'zgarish bilan rivojlanadi; 5) tangacha qanotlilar turkumiga mansub; 6) yuragidan bosh tomonga bitta qisqa qon tomir ketadi
A) 1, 5, 6 B) 2, 4, 5
C) 2, 3, 5 D) 1, 3, 6
- Kimyo**
61. CH₄, SO₂ va noma'lum X gazdan iborat gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 18 ga teng. Agar aralashmada V(CH₄) = V(SO₂) va m(SO₂) = m(X) bo'lsa. ushbu shartlarni qanoatlantiradigan X gaz qaysi gazlar bo'lishi mumkin?
A) azot, etilen
B) etan; azot (II)-oksid
C) silan, kislorod
D) fosfin, vodorod sulfid
62. Mol nisbatlari 4:2:1 bo'lgan Cu, C va Fe₂O₃ dan iborat 22 g aralashma konsentrlangan sulfat kislota da eritildi. Hosil bo'lgan gazlarning umumiy hajmini (l, n.sh.) toping.
A) 4,48 B) 8,96 C) 11,2 D) 6,72
63. X mol CaC₂ va 4.2 mol Ca dan iborat aralashma suvga solindi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasi katalizator ishtirokida barcha gidrogenlanish reaksiyalari tugagunicha qizdirildi. Natijada noma'lum gaz va vodoroddan iborat

(gazlar massalarining nisbati mos ravishda 10:1) gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. CaC_2 va Ca aralashmasining massasini (g) aniqlang.

A) 232 B) 347,2 C) 244,8 D) 210,7

64. $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}\text{O}$ formulaga mos keladigan moddalarni toping.

- A) propanal, propanon
B) etoksibutan, butiletanoat
C) valerian kislota, pentanon
D) dietil efir, metoksipropen

65. Bada o'simligida havodagi azotni o'zlashtiradigan azot bogdovchi bakteriyalar mavjud. Hosildorlik yaxshi paytda beda o'simligi shu bakteriyalar yordamida bir mavsumda har bir gektarida 140 kg azotni to'plashi mumkin. 1 gektar yerda beda o'simligi to'plagan azotni saqlagan havoning hajmini (l, n.sh.) toping (havoda azot gazining hajmiy ulushi 0,8 ga teng).

A) 11200 B) 14000 C) 140000 D) 100,8

66. Natriy qaysi moddalar bilan oddiy sharoitda reaksiyaga kirishadi?

- A) dekan, sulfat kislota
B) etilenglikol, siklogeksan
C) suv, benzol
D) kislorod, etilenglikol

67. Fosfor bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 62 ga teng bo'lsa, uning formulasini toping.

A) P_4 B) P C) P_6 D) P_2

68. Qanday hajmdagi (l, n.sh.) silan gazi tarkibidagi σ -bog'lar soni 24,2 g manganat kislodatagi π -bog'lar soniga teng?

A) 3,36 B) 2,24 C) 1,12 D) 1,68

69. Teng mol nisbatda olingan ikki xil alkilxloriddan iborat aralashmaga mo'l miqdorda natriy metalli ta'sir ettirildi. Bunda 25,8 g suyuq (n.sh.) alkanlar aralashmasi va 35,1 g natriy xlorid hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan galogenalkanlarni aniqlang.

- A) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{Cl}$; $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$
B) $(\text{CH}_3)_3\text{CCl}$; CH_3Cl
C) $(\text{CH}_3)_2\text{CHCl}$; $\text{C}_2\text{H}_5\text{CH}_2\text{Cl}$
D) $(\text{CH}_3)_2\text{CHCl}$; $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$

70. Etilen yonganda sarflangan kislorodning miqdori (mol) hosil bo'lgan karbonat angidridning miqdoridan necha marta katta?

A) 1,5 B) 3 C) 1 D) 2


71. Tarkibidagi barcha ionlarning modda miqdori 3 mol bo'lgan CaBr_2 eritmasiga ma'lum massali AgNO_3 tuzi qo'shilganda eritmada barcha ionlarning modda miqdori 5 mol ga tenglashdi. Eritmaga necha gramm AgNO_3 tuzi qo'shilgan? (suvda eruvchi barcha tuzlar uchun $\alpha = 100\%$, suv uchun $\alpha = 0\%$ deb hisoblansin)?

A) 510 B) 340 C) 170 D) 680

72. Glukozaning 1/5 qismi oksidlanganda 39,2 g glukon kislota olindi. Qolgan glukozaga teng ikkiga bo'linib, bir qismi vodorodda qaytarildi, ikkinchi qismi esa spirtli bijg'itildi. Hosil bo'lgan sorbit massasini (g) aniqlang.

A) 109,2 B) 182 C) 5,6 D) 72,8

73. 50,8 g dioxloralkan gidroliz mahsulotlarining massalari grafikda tasvirlangan. Qaysi alkaning dioxlorhosilasi gidrolizga uchragan?




A) propan B) butan
C) geksan D) pentan

74. Kaliy nitrat qizdirilib parchalanganda x mol, kaliy xlorat qizdirib parchalanganda esa y mol kislorod ajralib chiqdi. Dastlabki tuzlar miqdorlarining yig'indisi 9 mol, shuningdek, $x+y=8,5$. Agar bu tuzlar suvda eritilganda tarkibida 490:101:98 massa nisbatdagi moddalar bo'lgan eritma hosil bo'lishi ma'lum bo'lsa, shunday eritma tayyorlash uchun necha gramm suv kerak?

A) 2450 B) 101 C) 520 D) 98

75. Quyidagi reaksiyalar zanjiridagi X_1 va X_4 moddalar tarkibida vodorod atomlarining mavjudligi, shuningdek X_2 modda uglevodorod ekanligi ma'lum bo'lsa, X_2 va X_4 moddalarning nisbiy molekular massalari yig'indisini aniqlang.




A) 131 B) 86 C) 155 D) 121

76. Maktabning kimyo xonasida polga ozroq xlorid kislota to'kildi va dars tugaguncha u to'liq bug'lanib ketdi. Xlorid kislota zaharli bo'lib, u nafas yo'llarini yallig'lantiradi. Lekin o'quvchilar hech qanday hid sezishmadi. Agar bug'langan xlorli birikmaning massasi 1,095 g bo'lsa, hajmi 300 m^3 bo'lgan kimyo xonasida uning konsentratsiyasini (mol/m^3) toping.

A) 0,01 B) 0,0001 C) 0,001 D) 0,00001

77. Tajribalar asosida kerakli miqdorda olingan reagentlar va ularning o'zaro ta'sirlashishi natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni moslab toping (moddalarning rangi va shakli tabiiy emas).



- A) 1 -gaz hosil bo'lishi; 2-cho'kmaning erishi; 3-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi
B) 1-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi; 2-o'tkir hidli gazning ajralishi; 3-issiqlik chiqishi
C) 1-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi; 2-rang o'zgarishi; 3-issiqlik chiqishi
D) 1-cho'kmaning erishi; 2-gaz hosil bo'lishi; 3-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi

78. 0,01 mol noma'lum alken to'liq yondirildi. Ajralgan gaz 0,2 kg 0,74 % li kalsiy gidroksid eritmasiga yuttirildi. Bunda 1 g cho'kma ajraidi. Alkenni aniqlang.

A) penten B) propen C) buten D) eten

79. Natriy qaysi moddalar bilan oddiy sharoitda reaksiyaga kirishadi?

- A) etilenglikol, siklogeksan
B) suv, benzol


C) kislorod, etilenglikol
D) dekan, sulfat kislota

80. Dietilamin, dimetiletilamin va metilpropilamindan iborat 12 mol aralashmani yondirish uchun necha mol kislorod zarur?
A) 27 B) 81 C) 48 D) 96

81. Bir molekula sorbitdagi kislorod atomlar sonini toping/
A) 3 B) 12 C) 6 D) 7

82. 1 litr 2 M li HNO_3 eritmasiga 1 litr suv qo'shilganda eritmadagi anionlarning soni $9/8$ marta, kationlarning modda miqdori esa 0,2 mol ga ortdi. Dastlabki eritmadagi HNO_3 ning dissotsiatsiyalanish darajasini (%) aniqlang (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin).
A) 40 B) 80 C) 50 D) 90

83. Sxemaning quyi yacheykalariga mos keluvchi moddalar (a , b , c , d) to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini tanlang.



A) $a - \text{Na}_2\text{SiO}_3$; $b - \text{HBr}$; $c - \text{AgNO}_3$; $d - \text{ZnSO}_4$
B) $a - \text{CaBr}_2$; $b - \text{KNO}_3$; $c - \text{CaCl}_2$; $d - \text{NaCl}$
C) $a - (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; $b - \text{HClO}_4$; $c - \text{NaCl}$; $d - \text{HBr}$
D) $a - \text{ZnSO}_4$; $b - \text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; $c - \text{Na}_2\text{CO}_3$; $d - \text{BaS}$

84. π -bog'i bor bo'lgan murakkab moddalarni toping.
A) siamd kislota, temir (III) oksidi
B) pentan, ichimlik sodasi
C) aluminiy gidroksid, sulfat kislota
D) karbin, kalsiy oksidi

85. Ma'lum temperaturada NaOH ning eruvchanligi 40 ga teng. 1 mol Na necha gramm suvda eritilsa, to'yingan eritma hosil qiladi? (suv bug'lanmagan)
A) 60 B) 118 C) 100 D) 78

86. Noma'lum metall gidridi 19,4 g suvga solinganda 12 %li eritma hosil bo'ldi. Hosil qilgan eritmaning massasi dastlabki metall gidridi va suv massalarining yig'indisidan 0,2 g ga kam ekanligi aniqlandi. Suvga solingan metall gidridining kimyoviy formulasini aniqlang.
A) RbH B) KH C) LiH D) NaH

87. Sulfat kislota eritmasi elektrolizi natijasida anodda 28 litr (n.sh.) gaz ajraldi va 200 g 36,75 %li sulfat kislota eritmasi hosil bo'ldi. Kislotaning boshlang'ich eritmadagi massa ulushini (%) toping.
A) 60 B) 20 C) 15 D) 30

88. Mol nisbati 4:7 bo'lgan alken va vodorod aralashmasi (Ni ishtirokida) qizdirildi. Muvozanat holatdagi gazlar aralashmasining (vodorodning mol ulushi 60%) o'rtacha molyar massa 23,8 g/mol bo'lsa, alken molekulasidagi vodorod va uglerod atomlari sonining ayirmasini toping.
A) 4 B) 2 C) 5 D) 3

89. 330 g K_2S ni suvda eritib tayyorlangan eritmaga 0,8 mol HNO_3 qo'shilganda ajralib chiqadigan gaz hajmini (litrlar, n.sh.) aniqlang.

A) 17,92 B) 8,96 C) 24,8 D) 13,6

90. Teng massadagi C_3H_4 va O_2 aralashmasi portlatilganda 3,36 litr (n.sh.) CO_2 hosil bo'lsa, ortib qolgan modda va uning massasini (g) aniqlang (reaksiyada is gazi hosil bo'lmagan).
A) propin; 4,4 g B) propin 0,8 g
C) kislorod; 4,4 g D) kislorod; 0,8 g



KITOB RAQAMI: **1000536**

BILIM VA MALAKANI BAHOLASH AGENTLIGI

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Kitob raqami						
1	0	0	0	5	3	6
0	●	●	●	0	0	0
●	1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	●	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	●	5	5
6	6	6	6	6	6	●
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9

Bloklar:

- 1 - Ona tili
- 2 - Matematika
- 3 - O`zbekiston tarixi
- 4 - Biologiya
- 5 - Kimyo

USHBU KITOB RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA BEXATO KO'CHIRING!

TEST TOPSHIRUVCHI DIQQATIGA!

Har bir fan bo'yicha barcha test topshiriqlari mavjudligini tekshiring.
Test topshiriqlarida nuqsonlar bo'lsa, guruh nazoratchisiga xabar bering

Familiyangiz: _____

Ismingiz: _____

Otangizni ismi: _____

Ona tili

- Sinonimlar qatorida “begona” soʻz qoʻllangan javobni belgilang.
A) nayrang, xiyla, makr
B) oldin, avval, ilgari
C) yordam, madad, koʻmak
D) intiq, intizor, ilhaq
- Feʼlli soʻz birikmalari berilgan javobni aniqlang.
A) voqeani tahlil qilmoq, yoqimli kuy
B) mevalarni saralamoq, jar solmoq
C) asilzoda yigit, hovliga joylashtirmoq
D) musiqani tinglamoq, manzarani tasvirlamoq
- Qaysi gapda vergul qoʻllash bilan bogʻliq xatolik mavjud **emas**?
A) Bu fikrga qoʻshilmaydi balki, jon-jahdi bilan qarshi chiqadi.
B) Biz bugun, shubhasiz, gʻalaba qozonamiz.
C) Bizga kitob, daftar, qalamlar, kerak.
D) Bu safar na Nazira, na Nodira, kelmadi.
- Qaysi javobda zid maʼnoli soʻzlar juftligi berilgan?
A) hiyla – xiyla B) tor – keng
C) xotirjam – bermalol D) qalin – yoʻgʻon
- Hokim qismi koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz birikmasini aniqlang.
A) qattiq ishlamoq
B) ogʻir xoʻrsinmoq
C) vaziyatni yumshatmoq
D) vaʼdani unutmoq
- Tilimizning maʼlum davrida qoʻllanib, oʻz oʻrnini boshqa soʻzga boʻshatib bergan birliklar qatorini aniqlang.
A) hojib, degrez, yorgʻichoq
B) oʻlpon, jadid, rasadxona
C) paygʻom, bogʻot, gisu
D) cherik, ziroat, mingboshi
- Qaysi javobda nuqtalar oʻrniga lab undoshi yozilishi kerak?
A) yo...bosh B) sha...ba
C) jo...bozlik D) tra...vay
- Qaysi gapda kelishik qoʻshimchasini qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatolik mavjud?
A) Bogʻbonning gaplari barchani oʻylantirib qoʻydi.

- B) Oʻrinsiz aytilgan gap-soʻzlar insonning diliga ozor yetkazadi.
C) Odobli va odobsizni oʻrtasidagi farqni ayting.
D) Bobomlar bizning hol-ahvolimizdan xabardor ekanlar.

- Qaysi javobda “boʻysunmoq, itoat qilmoq” degan maʼnolarni bildiruvchi birlik ajratib koʻrsatilgan?
A) U kechirim soʻrash uchun eshigimizga bosh urib qaytib keldi.
B) Xalq bosh koʻtardi.
C) Yoʻlchi qayoqqa bosh urishini bilmas edi.
D) Qachongacha ularga bosh egib yashashimiz kerak?
- Qaysi javobdagi *yomon* soʻzi *gunoh* maʼnosida qoʻllangan?
A) Yomon xabarining qanoti yengil boʻladi, tez tarqaladi.
B) Hay, Xadichaxon, oʻylab gapiring-a, birovga tuhmat qilish yomon-a!
C) Yarasi juda yomon, juda qiynalib yotibdi.
D) Bolalikda oʻtgan yomon kunlari esiga tushib xoʻrliqi keldi.


Matematika

- Toʻgʻri burchakli parallelepipedning uchta turli yoqlarining yuzalari 20, 24 va 30 cm² boʻlsa, uning hajmini (cm³) toping.
A) 11 B) 10 C) 90 D) 120
- 17 metr necha millimetrga teng?
A) 17000 B) 1700 C) 170 D) 170000
- Tenglamani yeching.

$$\frac{1}{2-x} = \frac{3}{4+x}$$
A) $\frac{1}{4}$
B) $\frac{2}{3}$
C) $\frac{1}{3}$
D) $\frac{1}{2}$
- Toʻrtta ketma-ket toq natural sonning yigʻindisi – ...
A) 5 ga boʻlinmaydi
B) 8 ga boʻlinmaydi
C) 8 ga boʻlinadi
D) 5 ga boʻlinadi
- Hadicha 14 ta turli rangdan birini koʻpi bilan necha xil usulda tanlashi mumkin?
A) 7 B) 14 C) 10 D) 8
- $8 \leq x \leq 14$ qoʻsh tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlardan eng katta tub sonni toping.
A) 13 B) 17 C) 9 D) 11

17. Dastlabki 20 ta sonlar ichida 8 soni bilan o'zaro tub bo'lgan sonlar nechta?
A) 9 B) 13 C) 10 D) 7

18. Chizmadagi shakllarning bo'yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig'indisini hisoblang.



A) $\frac{7}{10}$ B) $\frac{2}{3}$ C) $\frac{3}{2}$ D) $\frac{4}{5}$

19. Agar bir fut (tovon) 30,5 cm ga teng bo'lsa, 2135 mm necha fut (tovon) bo'ladi?
A) 7 B) 70 C) 610 D) 61

20. Benzin baki va kanistrning hajmlari mos ravishda 9:1 nisbatda. Benzina to'la bakni bo'shatish uchun eng kamida nechta (hajmi dastlabki kanistr hajmi bilan bir xil bo'lgan) kanistr kerak bo'ladi?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10

O'zbekiston tarixi

21. "Buyuk Ipak yo'li" degan nom qachon va kim tomonidan berilgan?
A) 1877- yil K.Rixtgofer tomonidan
B) 1867- yil Meri Boys tomonidan
C) 1877- yil M.Dalion tomonidan
D) 1877- yil A.Dyuperron tomonidan
22. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni qachon imzolangan?
A) 1991-yil 31-avgustda VII sessiya
B) 1990-yil 20-iyun V sessiya
C) 1990-yil 24-mart VII sessiya
D) 1991-yil 31-avgust VI sessiya
23. Ernazarbiy qo'zg'oloni davrini eslang. Zarliq qaysi urug' boshliqlaridan biri bo'lgan?
A) qo'ldovli B) mang'it
C) qozoq D) kenagas
24. 1918-yil 20-noyabrda Turkiston ASSRda kimning raisligida ocharchilikka qarshi kurash Markaziy komissiyasi tuzilgan?
A) Mirza Salimbek
B) Yo'ldosh Oxunboboyev
C) Turor Risqulov
D) Fayzulla Xo'jayev
25. Buxoroda mamlakatdagi adolat mezonlariga amal qilinishi ustidan kim nazorat o'rnatgan?
A) Qozikalon B) Muhtasib
C) Shayxulislom D) Dodxoh
26. O'zbekiston SSRda yakka dehqon xo'jaliklari qaysi yilda butkul tugatilgan?
A) 1939-yil B) 1933-yil
C) 1941-yil D) 1937-yil
27. Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda imlo necha marta o'zgartirilgan?
A) 3 marta B) 5 marta
C) 4 marta D) 2 marta

28. So'g'dda bolalar ...yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi.

A) besh B) o'n etti
C) yigirma D) yigirma besh

29. Xorazmning qaysi qadimgi shahri yaqinidan qo'lida shohboz lochin tutgan tojdor tasviri so'qilgan tanga topilgan?

A) Tuproqqal'a B) Anqaqal'a
C) Kat D) Balx

30. 1875-yilning 19-yanvarida tavallud topgan, dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyinchalik muftiy darajasiga ko'tarilgan ma'rifatparvar allomani belgilang.

A) Abdurauf Fibrat
B) Abdulla Avloniy
C) Abdulhamid Cho'lpon
D) Mahmudxo'ja Behbudiy

Biologiya

31. Divergensiya (a) va konvergensiya (b) hodisalari to'g'ri ko'rsatilgan javovni aniqlang.
A) a – ixtiozavr va sutemizuvchilardan delfinning tana tuzilishining o'zaro o'xshashligi; b – delfinning oldingi oyog'i suzishga, otning oldingi oyog'i chopishga moslashganligi
B) a – dengiz toshbaqasi va delfinlarda oyoqlarning eshkaksimon bo'lishi; b – boychechak turkumiga mansub 30 ga yaqin turning mavjudligi
C) a – xaltali krot va oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi; b – chigirtka oyog'ining sakrashga, suv qandalasi oyog'ining suzishga moslashganligi
D) a – odam va boshqa hayvonlar gemoglobin zanjiridagi aminokislotalar tarkibidagi farq; b – ko'rshapalak va qushlarning qanoti
32. Aminokislotalarni aniqlang.
A) gistidin, sitozin
B) oksiprolin, guanin
C) prolin, oksiprolin
D) tirozin, mum
33. Organizmlar o'rtasidagi simbioz munosabatlardan nechtasining ishorasi to'g'ri juftlangan
- | Organizmlar o'rtasidagi munosabatlar | Shartli belgi |
|---|---------------|
| Epifit o'simliklarning daraxtlar po'stlog'ida o'sishi | (+; 0) |
| Ayrim qushlar Sirtlonlarning ovqat qoldiqlari bilan oziqlanishi | (+; -) |
| „zohid“ qisqichbaqasi aktiniyalarning tarqalishini taminlashi | (+; +) |
| Askarida va odam o'rtasidagi munosabati | (+; -) |
- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
34. Kambala bilan mantiqiy bog'liq javoblarni belgilang.
1) yuragi ikki kamerali; 2) konsument; 3) issiqqonli; 4) bir juft tasmasimon buyrakdan iborat; 5) yog'on ichak yo'li kloakaga ochilgan; 6) sovuqqonli; 7) ilik suyagi xos; 8) yirtqich hayvon;
A) 1,4,5 B) 3,5,7 C) 2,4,6 D) 5,6,8

35. Quyidagilardan Evolutsiya tiplarini mos ravishda juftlang.
a)Parallel Evolutsiya; b)Konvergent evolutsiya; c)Divergent evolutsiya
 1)akula tana tuzilishining ixtiozavrga o'xshashligi;
 2)kitsimonlar tana tuzilishining kurakoyoqlilarga o'xshashligi; 3)qirg'ovul kenja turlarining paydo bo'lishi
 A)a-2; b-3; c-1 B)a-3; b-2; c-1
 C)a-1; b-3; c-2 D)a-2; b-1; c-3;

36. Genealogik metod orqali aniqlanga dominant (a) va retsessiv(b) kasaliklar berilgan javobni aniqlang.
 1) gemofiliya; 2) braxidaktiliya; 3) ko'z shox pardasining ko'rlikka olib keladigan irsiy degeneratsiyasi; 4) qandli diabet; 5) sil kasalligiga moyillik; 6) shizofreniya; 7) kaltabarmoqlik;
 A) a-1,4,6; b-2,3,5,7;
 B) a-4,3,1; b-7,6,5,2;
 C) b-7,2,3,5; a-4,1,6
 D) b-6,1,4; a-3,2,7,5

37. Quyidagi olimlar va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlang.
 a) Darwin; b) Levenguk;
 1) protoplazmani kashf etgan; 2) nuklein kislotalarni birinchi marta aniqlagan; 3) polimer irsiylanishni o'rgangan; 4) uning fikriga ko'ra tabiatda turlar paydo bo'ladi, yoqoladi, o'zgaradi; 5) turning realligini tan olmagan holda tabiatda faqat individlar mavjud deb hisoblagan; 6) „Porloq“ navini yaratgan; 7) bir hujayrali hayvonlar va bakteriyalarni birinchi marta o'rgandi; 8) „to'qima“ tushunchasini fanga kiritgan;
 A) a-2; b-3; B) a-6; b-1;
 C) a-4; b-7; D) a-5; b-8;

38. Neotropik biogeografik viloyatiga xos eukariotlarni ajrating.
 1) emu; 2) iguana; 3) qora daraxt; 4) xameleon; 5) evkalipit; 6) skuns; 7) bambuk; 8) giyena itlari;
 A) 3,7 B) 4,8 C) 2,6 D) 1,5

39. Bir kunlik iste'mol qilingan ozuqaning organizmda ishlatilishi quyidagicha:

Ozuqa	katabolizm	Anabolizm
Oqsil(100g)	40%	60%
Yog'(100g)	100%	0%
Uglevod(500g)	60%	30%

Bunda oqsil va uglevoddan hosil bo'lgan energiya jami dissimilatsiyadan hosil bo'lgan energiyaning necha % ni tashkil etadi?

- A) 50,33; B) 60;
 C) 30,6; D) 35,8;

40. Hayvonlarning harorat o'zgarishiga moslanishlarini mos ravishda juftlab ko'rsating.
a) biokimyoviy; b) fiziologik
 1)gambuziya tanasida glikoproteinning bo'lishi;
 2)tipratikanning qishda uyquga ketishi; 3)dengiz mushugi terisi ostida qalin yog' qavatining bo'lishi;
 4) past haroratda issiqqonli hayvonlarda moddalar almashinuvi jadalligining ortishi
 A)a-1,3; b-2,4 B)a-1,4; b-2,3
 C)a-1,2; b-3,4 D)a-2,3; b-1,4

41. *Obidov gultish* singari...
 a)Gulkosachabarglari 5ta erkin; b)Gultojobargi 5ta qo'shilgan; c)mevasi tugunak; d)mevasi rezavor;

- e)bir urug'li ho'l mevaga ega; f)ko'p urug'li ho'l mevaga ega
 A)a,c,f; B)b,d,f C)b,d,e; D)a,d,f;

42. Metamorfoz jarayonida yashash muhiti almashinadigan organizmlarni aniqlang.
 1) kolorado qo'ng'izi; 2) assidiya; 3) zog'ora baliq; 4) alligator; 5) povituxa qurbaqasi; 6) suqsun;
 7) podalariy; 8) kuropatka.
 A) 2, 8 B) 1, 5 C) 6, 7 D) 3, 4

43. *Shish kasalligida jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishi kuchayib, yosh bolalarda erta balog'atga yetish kuzatiladi.* ushbu kasallik qaysi bez funksiyasi bilan bog'liq.
 A)ayrisimon B)qalqonoldi
 C)medaosti D)buyrakusti

44. Quyidagi kashfiyotlarni ularni amalga oshirgan olimlar bilan to'g'ri juftlang.
 a)ilk bor genlarni klonlagan;
 b)ilk bor replika ko'chirgan;
 c)DNK polimeraza fermentini ajratib olgan
1)Korenberg; 2)Joshua va Ester Lederberg; 3)Koen va Boyer;
 A)a-3; b-1; c-2 B)a-1; b-3;c-2
 C)a-2; b-3; c-1; D)a-3; b-2; c-1

45. So'lagi tarkibida girudin moddasi mavjud organizm bilan bog'liq javobni belgilang.
 1) bo'shliqchililar tipiga mansub; 2) 400 ga yaqin turi mavjud; 3) dengizlarda uchraydi; 4) mezoderma qavati rivojlangan; 5) chuchuk suvlarda uchraydi; 6) mezaderma qavati rivojlanmagan;
 A) 1,2 B) 2,5 C) 3,6 D) 3,4

46. Quyidagilarni to'g'ri juftlang.
a) interferon; b) elastin
 1)paylar tarkibida mavjud; 2)himoya funksiyasini bajaradi; 3)qon tomirlari devorida uchraydi;
 4)plastik funktsiya bajaradi; 5)translatsiya mahsuloti;
 A)a-1,4; b-2,5 B)a-1,4; b-2,3
 C)a-2,5; b-1,3 D)a-2,3; b-1,5

47. Quyidagilardan *to'g'ri-(a) va noto'g'ri-(b)* jumalarni toping.
 1)qoramollardan teri galanteriya buyumlari tayorlashda foydalaniladi;
 2)Shortgorn go'sht yo'nalishida boqilishi bilan Qozog'iston oqboshiga o'xshaydi;
 3)otlarning sutidan shifobaxsh preparatlar va zardob tayorlanadi;
 4)kushxonalarning chiqindilaridan charm poyabzallar tayorlanadi
 A)a-1,3; b-2,4 B)a-2,4; b-1,3
 C)a-2,3; b-1,4 D)a-1,2; b-3,4

48. Oqsil tarkibida 130 ta aminokislota mavjud. Ushbu oqsil sinteziga javobgar i-RNK bo'lagidagi jami nukleotidlarning 30% ni uratsil, 20% adenin tashkil qilsa, oqsil sinteziga javobgar DNK tarkibidagi adenin va timin orasidagi vodorod bog'lar sonini toping.
 A) 195 B) 390 C) 117 D) 351

49. Quyidagi kasalliklarni ularga tegishli fikrlar bilan juftlang.

a) fenilketonuriya; b) mikrocefaliya;

- 1) ushbu kasallik ikki xil genotipik sinf orqali ifodalanadi;
 2) agar ota- ona sog'lom bo'lsa ushbu oilada kasal farzandlarning tug'ilish ehtimoli 0 yoki 25%;
 3) agar ota- ona sog'lom bo'lsa ushbu oilada kasal farzandlarning tug'ilish ehtimoli 0%; 4) ushbu kasallik bir xil genotipik sinf orqali ifodalanadi.
 A) a-2,3; b-1,4 B) a-2,4; b-1,3
 C) a-1,3; b-2,4 D) a-1,2; b-3,4

50. Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan ko'p yillik o'tlarni aniqlang.
 1. rayhon 2. yalpiz 3. kiyiko't 4. nastarin 5. ligustrum 6. chinnigul
 A) 2,4 B) 2,6 C) 1,2 D) 4,5

51. Qora kalamushning zigotasi 4 marta meridianal bo'lin-gandan so'ng uning blastulasidagi blastamerlarida jami xromasomalr soni 2688 taga yetgan bo'lsa, unig somatik hujayrasidagi autosomal xromasomalr sonini aniqlang.
 A) 44 B) 40 C) 42 D) 36

52. Plazmidning transpozonga o'xshashligini toping.
 a) asosiy xromasomaga birika oladi; b) DNK qo'sh zanjiridan iborat c) transpozaza fermentini sintez qiluvchi genga ega; d) antibiotik va zaharli toksin parchalaydigan ferment sintez qiluvchi genga ega; e) vektor sifatida foydalanish mumkin
 A) b,c,e; B) b,d,a C) a,b,e; D) a,d,e;

53. Chuchuk suvda uchraydigan suvo't (a), prokariot organizm (b), virus (c) berilgan javobni aniqlang.
 A) a - yapon laminariyasi; b - sil qo'zg'atuvchisi; c - batsidiya
 B) a - batsidiya; b - o'lat qo'zg'atuvchisi; c - penitsill
 C) a - xlorella; b - kuydirgi qo'zg'atuvchisi; c - herpes
 D) a - xara; b - qoqshol qo'zg'atuvchisi; c - vertitsill

54. Ikki jinsli, to'g'ri gulli, yonbargchali, hasharotlar yordamida changlanadigan o'simliklarni aniqlang.
 1) qozonyuvg'ich; 2) ra'no; 3) oksitropis; 4) qora jusan; 5) itqovun; 6) Olga sorbariyasi; 7) tuxumak; 8) qashqargul 9) bodring; 10) kamxastak; 11) qashqarbada; 12) kungaboqar;
 A) 1,5,9 B) 2,6,10
 C) 4,8,12 D) 3,7,11

55. Quyidagi o'simliklarni dorivorlik xususiyati bilan birgalikda juftlang
 a) jag' - jag'; b) cherkez
 1) ildizidan yo'talga qarshi dori tayorlanadi;
 2) quritilgan bargi, guli, urug'i - ichni yumshatuvchi dori sifatida foydalaniladi;
 3) yerustki qismi qon to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi;
 4) bargi va mevasidan olinadigan dori tibbiyotda qon bosimini pasaytirish maqsadida ishlatiladi
 A) a-3; b-4; B) a-4; b-3;
 C) a-2; b-1 D) a-1; b-3;

56. Tekshirishlar natijasiga ko'ra bemorga qon plazmasida agglutininning ham α ham β turlar bor bo'lgan qon guruhlarini quyish mumkin bo'ladi. Bemorning o'zi esa qanida faqat agglutininlar bor bo'lgan qon guruhga retsiyent bo'lsa. Bemorning qon guruhini aniqlang?
 A) IV B) III
 C) II D) I

57. Mezazoy erasini Bo'r davrida sodir bo'lgan aromorfoz jarayonlarini aniqlang.
 1) xaltali va yo'ldoshli sutemizuvchilar paydo bo'lgan; 2) arxeoteriks paydo bo'lgan; 3) yopiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan; 4) uchuvchi hasharotlar, o'rgimchaklar paydo bo'lgan; 5) chumoli, asalari, arilar paydo bo'lgan; 6) dastlabki sutemizuvchilar paydo bo'lgan;
 A) 1,4,6 B) 1,3,5 C) 2,3,5 D) 2,4,6


58. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javoblarni ko'rsating.
 Olma mevaxo'ri kuya singari. . . .
 1) g'umbaklik davri mavjud; 2) qurtlari daraxt po'stlog'ida rivojlanadi; 3) tangachalilar turkumiga mansub; 4) chala o'zgarish bilan rivojlanadi; 5) tangacha qanotlilar turkumiga mansub; 6) yuragidan bosh tomonga bitta qisqa qon tomir ketadi
 A) 2, 3, 5 B) 2, 4, 5
 C) 1, 3, 6 D) 1, 5, 6

59. Bachadonli - anal teshikli - so'rg'ichli chuvalchaglarni shu ketma- ketlikda toping
 A) cho'chqa tasmasimoni - askarida - gijja
 B) exinokok - jigar qurti - bo'rtma nematoda
 C) qoramol tasmasimoni - rishta-planariya
 D) askarida - gijja - exinokok

60. AaBb genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilganda olingan organizmlarning necha foizi o'ziga o'xshagan genotipli oganizm bilan chatishtirilganda genotipda 1:2:1:2:4:2:1:2:1 nisbatda ajralish kuzatiladi?
 A) 18,75 B) 75 C) 50 D) 25

Kimyo

61. 10 % li tuz eritmasi bugdanishi natijasida to'yingan eritma ($S=25$) hosil bo'ldi. Bunda 1 g tuz cho'kmaga tushdi va eritma massasi 4 marta kamaydi. Bug'langan suv massasini (g) aniqlang.
 A) 15 B) 14 C) 6 D) 5
62. Ma'lum temperaturada NaOH ning eruvchanligi 40 ga teng. 1 mol Na necha gramm suvda eritilsa, to'yingan eritma hosil qiladi? (suv bug'lanmagan)
 A) 60 B) 100 C) 78 D) 118
63. Fosfor bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 62 ga teng bo'lsa, uning formulasini toping.
 A) P_2 B) P_4 C) P_6 D) P
64. 50,8 g dixloralkan gidroliz mahsulotlarining massalari grafikda tasvirlangan. Qaysi alkanning dixlorhosilasi gidrolizga uchragan?




- A) butan B) propan
 C) geksan D) pentan

65. 1 litr uglerod (II)-oksid va 5 litr havo aralashtirildi. Uglerod (II)-oksid uglerod (IV)-oksidga to'liq aylangandan keyin uglerod (IV)-oksid, kislorod va azot gazlarining hajmlarini mos ravishda toping. Havo tarkibida azot va kislorod 4:1 mol

nisbatda bo'lgan deb hisoblang. (Hajmlar bir xil sharoitda odchangan.)

- A) 1; 1; 4 B) 1,5; 0,5; 4
C) 1; 0,5; 4 D) 1; 1,5; 3

66. Grafikda moddalarning miqdorlari (mol) va vaqt o'rtasidagi bog'liqlik ifodalangan. $2\text{SO}_{2(g)} + \text{O}_{2(g)} \leftrightarrow 2\text{SO}_{3(g)}$ reaksiyaning muvozanat konstantasini toping. ($V=2$ litr)



- A) 0,125 B) 4 C) 0,25 D) 0,5

67. Quyidagi keltirilgan qatorda elementlar atomlarining radiusi qanday o'zgaradi?

Ca; Sr; Ba; Se; S; O

- A) kamayadi
B) selengacha kamayadi, so'ngra ortadi
C) ortadi
D) bariygacha ortadi, so'ngra kamayadi

68. Bir molekula sorbitdagi kislorod atomlar sonini toping/

- A) 12 B) 6 C) 7 D) 3


69. Mol nisbatlari 4:2:1 bo'lgan Cu, C va Fe_2O_3 dan iborat 22 g aralashma konsentrlangan sulfat kislota eritildi. Hosil bo'lgan gazlarning umumiy hajmini (l, n.sh.) toping.

- A) 8,96 B) 4,48 C) 6,72 D) 11,2

70. Mol nisbati 4:7 bo'lgan alken va vodorod aralashmasi (Ni ishtirokida) qizdirildi. Muvozanat holatdagi gazlar aralashmasining (vodorodning mol ulushi 60%) o'rtacha molyar massa 23,8 g/mol bo'lsa, alken molekulasidagi vodorod va uglerod atomlari sonining ayirmasini toping.

- A) 4 B) 2 C) 5 D) 3

71. Tajribalar asosida kerakli miqdorda olingan reagentlar va ularning o'zaro ta'sirlashishi natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni moslab toping (moddalarning rangi va shakli tabiiy emas).



- A) 1-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi; 2-o'tkir hidli gazning ajralishi; 3-issiqlik chiqishi
B) 1-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi; 2-rang o'zgarishi; 3-issiqlik chiqishi
C) 1-cho'kmaning erishi; 2-gaz hosil bo'lishi; 3-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi
D) 1 -gaz hosil bo'lishi; 2-cho'kmaning erishi; 3-suvda erimaydigan cho'kmaning hosil bo'lishi

72. Xlorid kislota quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi?

- A) aluminiy kaliy xlorid
B) natriy sulfid, temir

- C) mis, natriy sulfid
D) simob, mis (II) oksidi


73. Noma'lum aldegid namunasi teng ikki qismga bo'lindi. Aldegidning birinchi qismi mis (II)-gidroksid bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 14,4 g qizil cho'kma va ma'lum miqdorda karbon kislota hosil bo'ldi. Aldegidning ikkinchi qismi vodorod bilan qaytarilganda 6 g spirt hosil bodi. Aldegiddan olingan karbon kislota va spirt o'zaro (H^+ ishtirokida) reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan moddaning nomi va massasini (g) toping.

- A) propion kislotaing propil efiri; 46,4
B) propion kislotaing izopropil efiri; 46,4
C) propion kislotaing izopropil efiri; 11,6
D) propilpropionat; 11,6

74. Tarozi pallalariga bir xil massali stakanlar qo'yildi. Birinchi stakanga 10 g KHCO_3 , ikkinchi stakanga 10 g CaCO_3 solindi. So'ngra birinchi stakanga 50 g 36,5 %li xlorid kislota, ikkinchi stakanga 50 g 4,9 %li sulfat kislota eritmaları quyildi. Reaksiya sodir bo'lgandan keyingi holat bo'yicha quyidagi fikrlarni tahlil qilib, to'g'ri fikr(lar)ni toping (kislota eritmasi bug'lanmagan).

- 1) birinchi stakaning massasi ikkinchi stakaning massasidan 3,3 g ga yengil; 2) ikkinchi stakanda 8,9 g CaCO_3 erimay qoladi.
A) faqat 1-fikr to'g'ri
B) faqat 2-fikr to'g'ri
C) barcha fikrlar noto'g'ri
D) barcha fikrlar to'g'ri

75. Sxemaning quyi yacheykalariga mos keluvchi moddalar (a , b , c , d) to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini tanlang.



- A) $a - (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; $b - \text{HClO}_4$; $c - \text{NaCl}$; $d - \text{HBr}$
B) $a - \text{ZnSO}_4$; $b - \text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; $c - \text{Na}_2\text{CO}_3$; $d - \text{BaS}$
C) $a - \text{Na}_2\text{SiO}_3$; $b - \text{HBr}$; $c - \text{AgNO}_3$; $d - \text{ZnSO}_4$
D) $a - \text{CaBr}_2$; $b - \text{KNO}_3$; $c - \text{CaCl}_2$; $d - \text{NaCl}$

76. Teng massadagi C_3H_4 va O_2 aralashmasi portlatilganda 3,36 litr (n.sh.) CO_2 hosil bo'lsa, ortib qolgan modda va uning massasini (g) aniqlang (reaksiyada is gazi hosil bo'lmagan).

- A) propin 0,8 g B) kislorod; 4,4 g
C) propin; 4,4 g D) kislorod; 0,8 g

77. $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}\text{O}$ formulaga mos keladigan moddalarni toping.

- A) valerian kislota, pentanon
B) etoksibutan, butiletanoat
C) dietil efir, metoksiopropan
D) propanal, propanon

78. Etilen yonganda sarflangan kislorodning miqdori (mol) hosil bo'lgan karbonat angidridning miqdoridan necha marta katta?

- A) 2 B) 1 C) 3 D) 1,5

79. Yopiq sistemadagi gazning konsentratsiyasi 0,3 mol/l ga teng. Avval sistemaning bosimi 3 marta, keyin hajmi 3 marta oshirildi. Shu o'zgarishlardan keyin gazning konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang. (Temperatura o'zgarmagan)

- A) 2,7 B) 0,9 C) 0,6 D) 0,3
80. Teng mol nisbatda olingan ikki xil alkilxloriddan iborat aralashmaga mo'l miqdorda natriy metali ta'sir ettirildi. Bunda 25,8 g suyuq (n.sh.) alkanlar aralashmasi va 35,1 g natriy xlorid hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan galogenalkanlarni aniqlang.
A) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{Cl}$; $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$
B) $(\text{CH}_3)_2\text{CHCl}$; $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$
C) $(\text{CH}_3)_2\text{CHCl}$; $\text{C}_2\text{H}_5\text{CH}_2\text{Cl}$
D) $(\text{CH}_3)_3\text{CCl}$; CH_3Cl
81. Maktabning kimyo xonasida polga ozroq xlorid kislota to'kildi va dars tugaguncha u to'liq bug'lanib ketdi. Xlorid kislota zaharli bo'lib, u nafas yo'llarini yallig'lantiradi. Lekin o'quvchilar hech qanday hid sezishmadi. Agar bug'langan xlorli birikmaning massasi 1,095 g bo'lsa, hajmi 300 m^3 bo'lgan kimyo xonasida uning konsentratsiyasini (mol/m^3) toping.
A) 0,01 B) 0,001 C) 0,00001 D) 0,0001
82. 1) $\text{FeSO}_4 + \text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{A} + \text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{H}_2\text{O}$ 2) $\text{HNO}_2 + \text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{A} + \text{MnSO}_4 + \text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ Reaksiyalarda 2 moldan A modda hosil bo'lgan bo'lsa, oksidlovchilarning massalari (g) farqini toping.
A) 1354 B) 118 C) 1192 D) 44
83. Qanday hajmdagi (l, n.sh.) silan gazi tarkibidagi σ -bog'lar soni 24,2 g manganat kislota dagi π -bog'lar soniga teng?
A) 2,24 B) 1,68 C) 3,36 D) 1,12
84. Natriy qaysi moddalar bilan oddiy sharoitda reaksiyaga kirishadi?
A) kislorod, etilenglikol
B) dekan, sulfat kislota
C) etilenglikol, siklogeksan
D) suv, benzol
85. Uglerod monoksid va uglerod dioksid aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 18,8 ga teng. Aralashmadagi is gazining massa ulushi (%) qaysi sonlar oralig'ida joylashgan?
A) 28-32 B) 37-54 C) 39-73 D) 21-28
86. CH_4 , SO_2 va noma'lum X gazdan iborat gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 18 ga teng. Agar aralashmada $V(\text{CH}_4) = V(\text{SO}_2)$ va $m(\text{SO}_2) = m(\text{X})$ bo'lsa. ushbu shartlarni qanoatlantiradigan X gaz qaysi gazlar bo'lishi mumkin?
A) azot, etilen
B) etan; azot (II)-oksid
C) silan, kislorod
D) fosfin, vodorod sulfid
87. Dietilamin, dimetiletamin va metilpropilamindan iborat 12 mol aralashmani yondirish uchun necha mol kislorod zarur?
A) 48 B) 81 C) 96 D) 27
88. $M_r=12000$ bo'lgan 30 g polipeptid zanjiri gidrolizidan 34,95 g aminokislotalar aralashmasi hosil bo'ldi. Zanjirdagi aminokislotalar sonini aniqlang.
A) 111 B) 110 C) 108 D) 109
89. 330 g K_2S ni suvda eritib tayyorlangan eritmaga 0,8 mol HNO_3 qo'shilganda ajralib chiqadigan gaz hajmini (litr, n.sh.) aniqlang.
A) 13,6 B) 24,8 C) 17,92 D) 8,96
90. 0,01 mol noma'lum alken to'liq yondirildi. Ajralgan gaz 0,2 kg 0,74 % li kalsiy gidroksid eritmasiga yuttirildi. Bunda 1 g cho'kma ajraidi. Alkenni aniqlang.
A) propen B) buten C) penten D) eten

